SHARQ VA G‘ARB OLIMLARINING O‘QUVCHI VA TABIAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATNI TASHKIL ETISHGA QARATILGAN ILMIY QARASHLARI

Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi. Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti.
e-mail: adasoj386@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq va g‘arb olimlari, ularning tabiat haqidagi qarashlari hamda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni tashkil etishga qaratilgan ilmiy qarashlari, tabiatshunoslikka oid asarlari, o‘quvchi va tabiat o‘rtasidagi munosabatlrga doir qarashlari tahlil qilinadi. Sharq falsafasida inson va tabiat uyg‘unlik va ichki sezgi asosida bir butun deb hisoblanadi. O‘quvchi tabiat qonuniyatlarini anglashga, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga va tabiat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatiladi. Ikkinchi tomondan g‘arb falsafasi ilmiy qarashlarida tabiat inson tadqiqoti va boshqaruvining obyekti sifatida ko‘riladi. O‘quvchi ilmiy usullar orqali tabiatni bilishga va undan maqsadli foydalanishga harakat qiladi. Maqolada sharq va g‘arb yondashuvlari o‘rtasidagi asosiy farqlar ko‘rsatilib, ularning zamonaviy ekologik roli ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sharq falsafasi, g‘arb falsafasi, tabiat bilan munosabat, o‘quvchi va tabiat, Avesto, falakiyot, onalar maktabi, daodizm, buddizm, ilmiy tadqiqot, ekologiya, barqaror rivojlanish, ruhiy uyg‘unlik;

SCIENTIFIC APPROACHES OF EASTERN AND WESTERN SCIENTISTS TOWARDS ORGANIZING THE RELATIONSHIP BETWEEN THE STUDENT AND NATURE

Annotation. This article talks about how Eastern and Western scholars view nature and how they think people and nature should interact. It also looks at their works about nature and what they say about how students should relate to nature.In Eastern philosophy, people and nature are seen as one whole, connected through harmony and inner feeling. Students are taught to understand the laws of nature, respect it, and live in balance with it. In contrast, Western philosophy sees nature as something to study and control. Students learn to understand nature using scientific methods and try to use it for specific goals.The article compares the differences between Eastern and Western views and shows how both are important in today’s environmental problems.

Keywords: Eastern philosophy, Western philosophy, relationship with nature, student and nature, Avesta, astronomy, mothers' school, Taoism, Buddhism, scientific research, ecology, sustainable development, spiritual harmony;

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ УЧЕНЫХ К ОРГАНИЗАЦИИ ОТНОШЕНИЙ УЧЕНИКА С ПРИРОДОЙ

Аннотация. В этой статье рассказывается о взглядах учёных Востока и Запада на природу и на то, какими должны быть отношения между человеком и природой. Также рассматриваются их труды по естествознанию и идеи о том, как ученики должны относиться к природе. В восточной философии человек и

природа считаются единым целым, связанным внутренней гармонией и чувствами. Ученикам объясняют законы природы, учат уважать её и жить с ней в гармонии. С другой стороны, в западной философии природа рассматривается как объект для изучения и управления. Ученики с помощью науки стараются понять природу и использовать её для определённых целей. В статье показываются основные различия между этими подходами и подчеркивается их значение для современной экологии.

Ключевые слова: восточная философия, западная философия, отношения с природой, ученик и природа, Авеста, астрономия, школа матерей, даосизм, буддизм, научные исследования, экология, устойчивое развитие, духовная гармония;

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli Farmonida Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari Oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirish, iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlarini ishlab chiqish to‘g‘risida belgilab qo‘yilgan. [1]

Tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabatlar qadimdan to hozirgi kunga qadar falsafa, pedagogika, adabiyot va ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Sharq va G‘arb olimlari bu mavzuga turlicha yondashuvlar va qarashlarni ilgari surgan. Ushbu maqolada Sharq va G‘arb olimlarining o‘quvchilar va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarga doir asosiy qarashlari va ularning farqlari, umumiy jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz hisoblangan «Avesto» xalqimizning bebaho mulki hisoblanadi. Ushbu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam shu tuproqda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy-tarixiy merosidir. «Avesto», nafaqat diniy balki dunyoviy bilim manbayi hisoblanib, bu zaminda buyuk davlat, yuksak ma‘naviyat va madaniyat bo‘lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjat hisoblanadi. «Avesto» tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg‘unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o‘rganishga chorlovchi falsafaviy qarashdir. «Avesto»da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lib bugungi kunda ham qimatini asrab qolgandir. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to‘g‘risida ham qimmatli tavsiyalar berilgan.

Asosiy qism. Sharq falsafasida inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikka ko‘pincha yaxlit, bir butun tizim sifatida qaralib kelinadi. Sharq falsafasining bu yondashuvida insonga tabiatning ajralmas qismi, uning bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Masalan, qadimiy sharq falsafasida – Xitoyda Daoizm (Taoizm) da tabiat bilan uyg‘unlik, “Dao” (yo‘l) ga amal qilish inson (o‘quvchi) ning asosiy vazifasi hisoblangan. Daoizm ta‘limotida o‘quvchi tabiatning qonuniyatlarini anglab, ularni o‘z harakatlarini tabiat ritmiga muvofiq ravishda yo‘naltirishi lozim bo‘ladi va buning natijasida inson va tabiat bir butun yaxlit tizim sifatida uyg‘unlashadi.

Hind falsafasida ham, ayniqsa Vedanta va Buddizm ta’limotlarida, inson tabiat bilan ajralmas bir butun yaxlit tizim bo‘lib, uning mohiyatini anglash yo‘lida inson (o‘quvchi) ichki sezgi va meditatsiya orqali tabiat qonunlarini o‘rganadi, anglab tushunadi. Hind falsafasining bu yondashuvida tabiatga qarshi kurashish emas, balki

uni tushunish va unga bo‘ysunish, tabiat bilan hamnafas bo‘lish muhim hisoblanadi.

Yurtimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga o‘z izlanishlari orqali katta hissa qo‘shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni asrab-avaylash, tabiatning insonga in’om etgan dorivor giyohlari haqida qimmatli fikrlarni aytib o‘tganlar. Buyuk allomamiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yillar) o‘z risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar!». Endi fikr yuritaylik: Daryoning «yoshli ko‘zlari» deganda, allomamiz Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko‘zda tutgan ekan- a? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini, insonning bevosita va bilvosita ishtirokida suvning ifloslanishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo, daryo bilan odamlarning «bir-birlarini tushunishlari», o‘zaro mehr-muhabbat qo‘yishlarini bir butun yaxlitlik hosil qilishlarini nazarda tutganlar.

847- yilda alloma Muhammad al-Xorazmiy «Kitob surat al-arz» nomli tabiatshunoslikka oid asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit’alar, qutblar, ekvator, cho‘llar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar va o‘rmonlar, ulardagi o‘simlik, hayvonot dunyosi, yer yuzidagi butun relyef, shuningdek, Yerning asosiy tabiiy boyliklari bilan birgalikda boshqa tabiiy resurslari haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilganlar. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko‘nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilib qayd etilgan.

Yana bir ulug‘ allomamiz al-Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, uning «Kitob al-hajm va al-miqdor», «Kitob al-mabodi al-insonia» («Insoniyatning boshlanishi haqida kitob»), «Kitob al-a’zo al-hayvon» («Hayvon a’zolari to‘g‘risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo‘lib xizmat qiladi hamda bugungi kunda ham insoniyat uchun manba bo‘lib hisoblanadi.

Allomaning tabiatshunoslikka oid «Odam a’zolarining tuzilishi», «Hayvon a’zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a’zolarning tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to‘xtab o‘tilgan, ularning vazifasi tirik organizmlar uchun vazifasi haqida fikr yuritilgan.

Forobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratiladigan sun’iy narsalarni farqiga borib ajratib qayd etgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta’siri katta ekanligini ta’kidlab, tabiiy va sun’iy tanlash hamda tabiatga inson tomonidan ko‘rsatiladigan boshqa ta’sirlarni atroflicha baholab o‘tgan.

Abu Rayhon Beruniy ham tabiatshunoslik faniga o‘z ilmiy izlanishlari, ilmiy qarashlari orqali ko‘plab hissa qo‘shgan. Alloma fazodagi hodisalarni narsa va hodisalarning o‘zaro ta’siriga bog‘lab,isbot va dalillar orqali batafsil tushuntiradi, yerdagi ba’zi hodisalarni quyosh orqali izohlab o‘tib, quyoshning yerga ta’sirini batafsil yoritadi. Beruniy o‘zining tabiatshunoslikka oid ilmiy risolalarida o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari,ularning ko‘payishi, ularning tarqalishi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topishimiz ham mumkin. Beruniyning tabiiy fanlarga oid ilmiy qarashlari, asosan, «Saydana», «Minerologiya», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida o‘z aksini topgan. Ushbu asarlarida Beruniy Eronning turli tropik o‘simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori, yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligini misollar bilan batafsil tushuntirgan. Beruniy yer yuzining o‘zgarishini o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishi bilan bog‘liq, tirik organizmlarning turli hayoti esa yer tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, deya hisoblagan bo‘lib, ushbu fikrlarini ilmiy

asarlarida qayd etgan. Cho‘llardagi qumni kavlab, uning orasidan chig‘anoqni topish mumkin, buning asosiy sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, deb ta‘kidlaydi alloma o‘z risolalarida. Beruniyning «Saydana» nomli asarida bir ming bir yuz o‘n olti xil dori-darmonlarni keltirgan hamda ularni tavsiflangan. Ularning yeti yuz elliktasi turli o‘simliklardan, bir yuz bittasi hayvonlardan, bir yuz yettitasi esa minerallardan olinishi haqida so‘z yuritilgan. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asarlari hisoblanmish «Kitob ash-shifo», ya’ni «Davolash kitobi» asarida bayon etilgan. Bu asarda matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi qator fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Ibn Sinoning tog‘larning qay tarzda vujudga kelishini, yer yuzi relyefining davrlar o‘tishi mobaynida qay tarzda o‘zgarib borishini, zilzilaning nima sababdan sodir bo‘lishini va shu kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlarni keltirib geologiya ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Sharq olimlari ilmiy qarashlari orqali inson (o‘quvchi) ga tabiatdan o‘rganishni, uning tabiiy qonuniyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni va shu tarzda hayot kechirishni tavsiya qiladilar, bu orqali inson o‘zligini anglab, o‘zining haqiqiy tabiati va dunyo bilan uyg‘unlikni topadi va shu tarzda beg‘ubor hayot kechiradi.

G‘arb olimlarining qarashlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, g‘arb pedagogikasida ham tabiatning bola tarbiyasidagi o‘rni mavjud o‘laroq, ilmiy-empirik asosga qurilgandir (ya’ni g‘arbda reallik ustunroq). Fransuz pedagogi va faylasufi Jan Jak Russo o‘zining tabiiy fanga oid “Emil yoki tarbiya haqida” nomli asarida asosiy g‘oyasi: “Tabiat – eng buyuk ustoz” bo‘lgan inson tarbiyasining tabiiylikka asoslangan yangi modelini taklif etadi hamda insonning tabiatdan ajralmasligi lozimligini bot-bot uqtiradi.

Chexialik mashhur pedagog Y. A. Komenskiyning fikricha, inson tabiatning eng go‘zal mavjudoti bo‘lib, inson tabiatga ergashib har qanday muammoga yechim topishi mumkindir. U o‘zining «Buyuk didaktika», «Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlari orqali o‘zining muhim pedagogik g‘oyalarini ilgari surgan.

Quyidagi jadvalda sharq va g‘arb olimlarining o‘quvchi va tabiat o‘rtasidagi munosabatga doir tamoyillari keltirilgan:

Tamoyil	**Sharq olimlarining yondashuvi**	**G‘arb olimlarining yondashuvi**
1. Tabiatning inson hayotidagi roli	Tabiat – ilohiy hikmat manbayi hamda ruhiy tarbiya vositasi hisoblanadi.	Tabiat – tajriba va bilim manbai bo‘lib, ilmiy rivojlanish vositasi sifatida qaraladi.
2. O‘quvchining pozitsiyasi	Ruhiy yetuklikka erishuvchi, tabiatni anglash orqali poklanadi hamda ulg‘ayadi.	Faol ishtirokchi bo‘lib tajriba orqali bilim oluvchi shaxs.
3. Tarbiyaviy maqsadi	Ma’naviy-axloqiy yetuklikka intilib, tabiat bilan uyg‘un yashash.	Mustaqil fikrlashga qaratilgan muammoni hal qila olish, amaliy bilim olish hamda boyitish.
4. Ta’lim usuli.	Falsafiy mulohaza, kuzatuv asosidagi badiiy-estetik tahlil.	Amaliyot, tajriba, muammo yechimi topish hamda shu asosida o‘qitish.
5. Tabiatga bo‘lgan munosabat	Tabiatga hurmat, ehtirom, uni Yaratganning	Tabiatni tushunish, tahlil qilish asosida ilmiy

	insonlarga bergan eng buyuk ne’mati deb bilish.	o‘rganish, yakuniy xulosalar chiqarish.
6. Axloqiy tarbiya vositasi sifatida	Tabiat – axloqiy saboqlar manbai, sabr, kamtarlik, go‘zallik, estetika, donishmandlikni o‘rgatadi.	Tabiat – ijtimoiy ong, mas’uliyat, atrof-muhitga g‘amxo‘rlik tarbiyachisi sifatida xizmat qiladi.
7. Bilim manbai sifatida	Tabiat –donishmandlik, hayot saboqlarining manbai, hayot uchun asosiy poydevor	Tabiat – empirik kuzatuv, ilmiy bilimlar asoschisi, real hodisa.
8. O‘quv faoliyatining shakli	Ko‘proq ichki tafakkurga asoslangan, badiiy yondashuvlar ustuvor hisoblanadi.	Ko‘proq tajriba, laboratoriya, dala ishlari,loyiha, asosli o‘qitish, real amaliyot.

Xulosa va tavsiyalar: Sharq va g‘arb olimlarining o‘quvchi va tabiat o‘rtasidagi munosabatni tashkil etishga doir ilmiy qarashlari inson va atrof-muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tabiatni har nafasda asrashga uni Yaratgan ne’mati deb bilishga, undan maqsadli tarzda unumli foydalanishga chorlaydi. Sharq falsafasida tabiat bilan uyg‘unlik, insonning tabiatga hurmati va uni saqlashga doir g‘oyalar markaziy o‘rin tutsa, g‘arb falsafasida ko‘proq reallik ustunlik qiladi. G‘arb falsafasida tabiatga real ilmiy hodisa sifatida qaraladi. Bu qarashlarga o‘quvchiga nafaqat bilim berish, balki uni tabiat bilan ahillikda, uyg‘unlik kasb etgan holda yashashga tayyorlash vazifasi yuklatilgandir. G‘arb olimlari o‘quv jarayonida tabiatni amaliy va eksperimental asosda o‘rganish, ilmiy asosda munosabatlarni o‘rnatish tarafdori bo‘lib har bir tabiat unsuri laboratoriya sharoitida o‘rganiladi. Ular tabiatni faqat obyekt sifatida ko‘rib, unga nisbatan tushuncha va nazariy bilimlar hosil qilishga urg‘u berganligi sababli ko‘proq ilmiy-eksperimental xulosalarga tayanadi.

Ikkala yondashuv ham ayni vaqtda bir aniq maqsadga - o‘quvchi va tabiat o‘rtasidagi munosabatni chuqurroq anglashga xizmat qilib, tabiat va inson o‘rtasida hurmat uyg‘otadi. Sharqning falsafiy, ruhiy va estetik qarashlari hamda g‘arbning ilmiy va tajribaviy yondashuvlari birlashib, o‘quvchilarni tabiatga nisbatan mas’uliyatli, hushyor va yetuk insonlar qilib tarbiyalashi mumkin bo‘ladi . Shu tariqa, o‘quvchi va tabiat o‘rtasida mustahkam va uyg‘un hamda o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni tashkil etishi mumkin hamda bilim berish jarayonining samaradorligini oshiribgina qolmay, balki atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanishni, tabiiy muvozanatni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktyabr. PF-5847-sonli Farmoni

2. Nizomova E. «6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish». Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2006.

3. Yusupova P. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish». – Toshkent: O‘qituvchi. Qo‘llanma, 1995.

4. Yoldoshev H. S. Avazov Sh. M. «Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari» – Toshkent: «Mehnat», 2003.

5. Makhmudjonov Z. Haqberdiyeva H. Suyunova Y. G‘aniev B. Bioecological characteristics of Leucozonella corona. Research and education ISSN:

2181-3191volume, issue 8 2022.

6. Makhmudjonov Z. M. Khayrullo B. Khakimov N. A. Mekhmonova Sh. R. Nasriddinova S. S. Biological peculiarities of Leucozonella retteri. Baghdad Science Journal. Irak. February, 2023 DOI: https://dx.doi.org/10.21123/bsj.2023.7343

7. Makhmudjonov Z, Abdurashitov S, Chutanov B. Distribution and lifestyle of Leucozonella mesoleuca. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value:1.241| https://doi.org/10.36713/epra2016

8. Pazilov A, Kudratov J, Makhmudzhonov Z. New type of terrestrial mollusc of Archaica (Gastropoda, Pulmonata, Hygromiidae) from Central Asia. Int J Geogr Geol Environ 2019.